



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 30-yanvar, payshanba,

12 (24.038)-son

O'zbek xalq
maqoli

Xalq
aytgani -
haq
aytgani

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan




www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

Kun nafasi



MAHALLA RAISLARI

senatorga "dardlari"ni aytди



MAHALLA larda xavfsiz MUHIT YARATILADI

Davlatimiz rahbarining shu yil 3-yanvarda imzolangan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha choratdiblar to'g'risida"gi qarorini amaliyotga tatbiq etish maqsadida Ichki ishlar vaziri general-leytenant Po'lat Bobojonov boshchiligidagi respublika ischi guruhu viloyatimizda ish boshladi.



Ichki ishlar vaziri Urgut tumani Mergancha mahallasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va "mahalla yettiligi" faoliyatini, shuningdek, tartibli mehnat migratsiyasi bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Viloyat IIB axborot xizmatining ma'lum qilishicha, ischi guruh mahallada ish uslubi samarasiz tashkil etilgan, profilaktika inspektorining ishlari qoniqarsiz ekanligi bois mahalla "qizil" toifaga tushib qolganligini tanqid qilgan.

Tuman sektor rahbarlari, hamkor tashkilotlar mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbarining qarori mohiyati, uni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan fikrlar bildirilib, ziyor chora-tadbirlar belgilandi.

Po'lat Bobojonov Past Darg'om tumani mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish yuzasi dan amal-

ga

Natijaga qanday erishiladi?

Aholini kambag'allikdan chiqarish, ishsizlikni bartaraf etish, aholini doimiy va ehtiyoja yetarli daromad bilan ta'minlash har bir davlatning eng ustuvor vazifalari dan biri hisoblanadi. Bu ishlarni, aslida aytish oson, lekin amalda bajarish katta mas'uliyat, tajriba, aniq strategiyaga asoslangan qadamlarni talab etadi.

2024-yil 23-sentabrda Prezidentimizning "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturni amalga oshirish bo'yicha birinchiligi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatga muvoqiq dasturni amalga oshirishning aniq rejalarini va 2024-2025-yillarda aholini kambag'allikdan chiqarishning yo'nalishlari va hududlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Raqamlargara qaraydigan bo'isak, O'zbekistonda 2020-yildan kambag'allik bilan kurashish mamlakat



siyosating ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu yilda "Ko'p o'chovli kambag'allik indeksi" standartlari va xalqaro tajriba o'rganilib, bu borada



Oliy Majlis Senati a'zosi Abdusaid Ko'chimov viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish markazida navbatdagi o'quv kursi tinglovchilari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda Oliy Majlis Senatining o'tgan hafta yakunida o'tkazilgan uchinchi yalpi majlisida muhokama etilgan masalalar, qabul qilingan qonunlarning ahamiyati haqida mahalla raislariga ma'lumot berildi.

Bugungi shiddatkor zamonda har bir davlat uchun iqtisodiy barqarorlikka erishish, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash va xalq farovonligini oshirish asosiy masala hisoblanadi, - dedi A.Ko'chimov. - Jumladan, O'zbekiston uchun ham. Shuning uchun qisqa vaqt ichida uch marta yangi chaqiridagi Oliy Majlis yuqori pala-tasining yalpi majlisini chaqirilib, bugungi va ertangi kunitim bilan bog'iq muhim masalalar ko'rib chiqildi. Xususan, o'tgan hafta uch kun davom etgan majlisimizda jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarni mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligini oshirishga,

xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 20 ta masala, shu jumladan, 18 ta qonun ko'rib chiqildi. Bu masalalarning har biri avvalo, xalqimiz manfaatlari, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qadrini ulug'lash nuqtai nazaridan qizg'in muhokama qilindi, tegishli hujjatlar, qonunlar ma'qullandi.

Oliy Majlis Senati a'zosi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"-gi Qonun bilan fuqarolar yig'ini raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish tartibi yanada takomillashtirilayotganini qayd etdi.

Qonunda fuqarolar yig'ini raisi vakolatlarini muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirish, bo'shab qolgan o'rinnarga fuqarolar yig'ini raislari 5 yil muddatiga saylash, shuningdek, fuqarolar yig'ini raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalarining vakolatlariga o'tkazish nazarda tutilgani ta'kidlandi.

Markaz tinglovchilari – mahalla raislari Senatda ma'qullangan qonunlar hududlar rivoji, aholi kayifiyatni va turmush tarziga ijobjiy ta'sir etishini qayd etgan holda senatorga bir qator savollar bilan murojaat qildilar, taklif va tashabbuslarini bildirdilar.

G'.HASANOV.

"WORLDSKILLS SAMARKAND – 2025"

V milliy kasblar championati boshlandi

Samarqand shahrida
Oliy ta'lim fan va
innovatsiyalar vazirligi
hamda "Worldskills
Uzbekistan" Ishchi
kasblarni rivojlantirish
va ommalashtirish
assotsiatsiyasi bilan
hamkorlikda professional
ta'lim muassasalari
o'quvchilari o'rtasida
"WORLDSKILLS
UZBEKISTAN-2025" V
milliy kasblar
championati
boslandi.



(Davomi
3-sahifada) >>>

Kambag'allikdan farovonlik sari

ni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha iqtisodiyotning o'zgarishiga qarab, yangi yondashuvlar va ko'p o'chovli kambag'allikni aniqlash mezonining yangi tizimi joriy etiladi. Bunda, kambag'allik faqtigina daromad yoki iste'mol bilan belgilanmaydi, balki ta'lim, tibbiy xizmat va fuqarolarning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan boshqa mezonlar qamrab olinadi. Yana 50 ming gektar yer 100 mingta kambag'al oliliga bo'lib beriladi. Jami 6 680 gektar yer maydonida "bir kontur – bir mahsulot" tamoyili asosida yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishi-sh bo'yicha namunaviy loyihalari amalga oshiriladi. Yana bir Xitoy tajribasi asosida yerdan uch xil daromad oladigan tizim joriy qilinadi. Ijobiy tajribaga ega 100 ta eng samarali mikroloyiylar katalogi yaratiladi. Sanoat kirib bormagan mahallalarda 2025-yilda 1000 ta, 2026-yilda 2000 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash va kichik ishlab chiqarish loyihalari ishga tushiriladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Farg'ona viloyati ham Samarqand singari aholisi ko'p va yil sayin tug'ilish ko'payib borayotgan hudud hisoblanadi. Bu esa shunga yarasha uy-joy, bog'cha, maktab, tibbiyot muassasalarini qurish, yangi ish o'rinnari, qulay turmush sharoiti yaratish, yangi infratuzilma barpo etishni taqozo etidi. Va, amalda ham bunday yumushlar bajarilayotganini eshitayapmiz, ommaviy axborot vositalari orqali ko'ryapmiz.

Jumladan, Farg'ona xalqaro aeroporti yaqinida, toshloq bir joyda ekoshaharcha qurilib, ko'rkan aholi yashash maskani paydo bo'lgani haqida ham eshitgandik. Yaqinda ana shu ekoshaharchada bo'lib, bu yerdagi bунyodkorlik ishlari bilan tanishish imkoniyatini tug'ildi.

EKO SHAHARDA GAZDAN FOYDALANILMAYDI

Ma'lumotlarga ko'ra, ekoshahar tarzida bунyod etilgan "Yangi O'zbekiston" massivi 300 hektar maydonni egallaydi.

Bu yerdagi birinchisi bosqichda 2800 xonadondan iborat 75 ta ko'p qavatlari uy-joy, 3 ta maktabacha ta'lim tashkiloti, 2 ta umumta'lim maktabi, O'zbekiston Qahramoni Lola-xon Murodova nomidagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan texnikum, poliklinika, sport inshootlari, umuman, aholi maskanida nimaqila zarusi bo'sha, barchasi qurilgan. Ayni paytda davom etayotgan ikkinchi bosqichda yana 25 ta ko'p qavatlari uy foydalishga topshirilib, 1350 oila yangi uy bilan ta'minlanadi. Shunga yarasha ta'lim va tibbiyot muassasalarini tashkil etilar ekan.

Bir paytalar toshloq bo'lgan hududda "Yangi O'zbekiston" bog'i tashkil etilib, 20 xildan ortiq 35 ming tup manzarali ko'chat etililib. Shaharcha aholisi uchun 4 ming o'rinni amfiteatr qurilib, unga uyg'un tarzda sun'iy ko'yaratilgan va musiqali favoralar o'rnatilgan. Ellik gektar maydonda kichik sanoat zonasining ishga tushirishi hisobiga 20 mingdan ziyod ish o'rni ochish borasida ishlari qilinayti.

Ekoshahardagi uyldara tabi gaz ishlatalmas ekan. Quyosh paneli, "aqli" va tejamkor jihozlaridan foydalaniлади. Yo'l va yo'laklarga "aqli" chiroq o'rnatilgan. Quyosh panellari ishlab chiqargan elektr energiyasi xonadon va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga yet-

EKO SHAHARCHA dan

nimalarni o'rganishimiz kerak?

kazb beriladi. Barcha binolar bazalt bilan qoplangan. Xonadonlarni issiqlik bilan ta'minlash uchun 21 ming megavatt quvatga ega markazlashgan isitish ozon qurilgan. Kommunikatsiya jihozlari barchasi yer ostida – bitta tunnella jamlangan ekan. Mutaxassislarning aytilicha, bu ta'mirlash ishlari qulay sharoitda, ortiqcha xarajatsiz, sifatli bajarish imkonini beradi.

CHIQINDI SARALANADI

Shaharcha bilan tanishib, aholi va mas'ullar bilan suhbatlashib, ayrim jihatlarini o'zimizdagisi yangi qurilishlar bilan qiyosladik. Chunki keyingi yillarda Samarqand shahrida ham yangi aholi yashash manzili – Qorasuv maskani paydo bo'ldi, Urgut, Toyloq, Bulung'ur tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari qurildi va bu jarayon davom etmoqda.

E'tiborimizni tortgan birinchi jihat – ekoshaharchadagi yashil maydonning ko'pligi va minglab daraxt ko'chatlari o'tqazilgani bo'ldi. Ichki yo'llarning ikki tomonida, har bir bino-inshoot atrofida maysazor yaratilib, daraxt ko'chatlari, buta va gullar ekilgan, yomg'irlatib yoki tomchilatib sug'orish tizimi mavjud.

Bir joyda – uylar atrofida yoki ariqlarda ham chiqindi ko'rmaysiz, hamma joy ko'rkan, saranjom-sarishtas. Har bir ko'p qavatlari uy oldida, maydonlarda kichik chiqindi qutilari o'rnatilgan. Shaharcha mas'ullarining aytilicha, xonadonlardan chiqqadigan chiqindilarni saralash, qayta ishslash borasida boshqaruv servis kompaniyalari o'rtasida o'zaro raqobat muhit shakllantirilgani bois, aholi sifatli va arzon xizmatlarini taklif etgan kompaniyalar bilan shartnomaga imzolagan. Chiqindini tashlash uchun alohida joy va qutilar joylashtirilgan. Ko'p qavatlari uylar hovvilarida qurilgan kichik avyonchalarida ulug' allomalar haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgani, bu joyda hordiq chiqaradigan kattalar bo'ladi yoki yoshlarmi, biron bir ma'lumotga ega bo'ladi, ajoddalarimizdan faxr-iftixor tuyadi.

Bizda ham shu tajribalarni joriy etish, aholining ekologik madaniyatini oshirish uchun nima xalaqit qiladi, tushunmaysan kishi?!

HECH KIM "BOLKON"NI YOPMAGAN

Ekoshaharchadagi uylarg'a e'tibor qildik. Hech bir xonadon egasi ayvoncha (balcony) yopib olmagan. Bizada, afsuski, yangi uya ko'chib o'tgan odam, xavfizlik talabiga javob beradimi, yo'qmi, ishni balkonni yopib olishdan boshlaydi.

Hududda piyodalar va velosiped uchun yo'laklar tashkil etilgan va shunga mos belgilari o'rnatilgan, avtomashinalarni vaqtincha saqlash joylarida ham chiziqlar chizilgan.

Vodiyya sayohat

Shu yerda Qorasuvdagi manzara ko'z oldingga keldi. Na yo'l belgilari, na yo'lda chiziqlar bor? Ayrimlar esa avtomashinasini oq'yadigan joyga turli to'siqlar o'rnatib, egallab olishish harakat qilayotgani ham kuzatilmoxda. Hatto piyodalar yo'lagi yoki maysazor ustida avtomashinasini joylashtirayotganda ham befar-qmiz – na jamoatchilik munosabat bildiradi, na tegishli idoralar chora ko'radi.

Ekoshaharchadagi bolalar maydonchalari va o'yingoh, sport inshootlari ham qanday qurilgan bo'lsa, shunday saqlangan. Hech biri sindirilimagan, zarar yetkazilman, odamlar o'z mulklarini asrab-avaylagandek munosabat bo'lishgan.

Ko'p qavatlari uylarg'a xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv servis kompaniyasi faoliyatini aholi kayfiyatini belgilaydigan xizmatlardan hisoblanadi. Bu borada ham ekoshaharcha tajribasi o'rgansa arzigulik. Kompaniya joylashshagan uydura murojaat uchun telefon raqamlari, ko'sratiladigan xizmatlar va kommunal idoralar haqidagi ma'lumotlar ko'rinarli qilib yozib qo'ilgan. Odamlar boshqaruv servis kompaniyasi qayerda, ular bilan qanday bog'lanaman, deb izlab yurmaydi.

Yana bir e'tibori jihat, ekoshaharcha va Farg'ona shahri o'tasida bir necha avtobus yo'nalishlari qatnovi yo'Iga qo'yilib, bu transport vositalari uchun shoxbekat, shaharcha ichida ham ko'rkan bekatlar tashkil etilgan.

Xullas, ko'p narsa qiyoslaganda, taqqoslaganda yorqin namoyon bo'ladi, degan gapga yana bir bor amin bo'dik. Tajriba o'rganish, odamlar uchun quay sharoit yaratish va ularning madaniyatini oshirish uchun million-million so'm mablag' sarflab xorijiga borish shart emas, yon-atrofimizga qarab, chiroylar turmush kechirayotganlar tajribalarini qo'llasak, hayotga qarashlarimizni o'zgartira olsak va har kim o'z vazifasiga vijdanan yondoshsa kifoya, hammasi yaxshi bo'ladi.

G'olib HASANOV.

Natijaga qanday erishiladi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Bu borada viloyatimizda o'tgan yili qariyb 98,5 ming kambag'al oilaning 72 mingdan ortig'i barqaror va daromadli ishga joylashtirildi. Yil davomida 8 mingdan ortiq fuqaro xorijiy turi kurslarda o'qitilib, mehnat migratisiyasiga yuborildi.

2025-yilda "Kambag'allikkadan farovonlik sari" dasturi doirasida 87,6 ming nafr aholini kambag'allikkadan chiqarish rejulashtirilgan. Buning natijasida kambag'au oillar soni 75,5 mingdan 56 mingtaga (7,9 foizidan - 5,8 foiziga) pasaytiriladi va ishsizlik darajasi 5,2 foizdan 5 foizga tushiriladi.

Bundan tashqari, "Bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida ijaraq ajarilgan yet maydonlari da 40 gektdar jami 560 hektar yer maydonida loylahalarni amalga oshirish orqali mingdan ortiq aholining bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Misol uchun, 55 ta mahalla fuqarolar yig'ini va 204 mingdan ortiq aholiga ega Bulung'ur tumanida oillar kambag'allikkadan chiqarish va doimiy daromadga ega bo'lishning aniq rejalarini ishlab chiqilgan.

- Bulung'urda yil boshidagi holatga ko'ra, 475 ta kambag'al oila ro'yxatga olingan va tumandagi rahbarlar 5 tadan oilaga mas'ul etib belgilangan, - deydi tuman hokimining birinchi o'rbinbosari Sherzod Ibragimov. - Avval bu kabi amaliyotda kambag'al oilalarga tikuva mashi-nasi, motokultivator, payvandlash uskunani kabi jihozlar berib, ular ro'yxatdan chiqarilgan bo'lsa, endilka kambag'al oilalar aniq manzili bilan daromadli ishga joylashtiriladi va olti oydan so'ng barqaror daromadga ega bo'lgach, ro'yxatdan chiqariladi. Buning uchun kambag'al oila a'zolari kasb-hunarga o'qitiladi, ishga joylashtiriladi. Agar bu oilaning a'zolardagi nogironlik bo'lsa, davolanishi ta'minlanadi. Buning uchun hani tizim yaratilgan. Maktab yoshidagi nogiron farzandlar uyida o'qitiladi, xastaligi borlar tibbiyot muassasalarida davolanaadi. Oddiy qilib aytganda avvaligiday



tekiga biror uskuna berib, uni ishlari qildik, degan gap-so'zlar bo'lmaydi endi. Tumanimizdagagi aholining har birida o'rtacha 10 sotix tomorqa maydoni bor. Ayrim fuqarolar sug'oriladigan va umundor tomorqa yerlariдан foydalananymagidan hotlatlar ham uchrab turadi. Ular bilan uchrashib, tomorqaga qanday ekin ekishi, chorva, parranda boqish, undan daromad olishni tushuntirayapmiz.

KAMBAG'AL OILALARGA KITOB TARQATDIM

2024-yil sentabr oyida Gulzor mahallasidagi o'zimga biriktirilgan 5 ta kambag'al oila bilan uchrashib, sharoitini o'rgandi, daromad olish imkoniyatlari, ishga joylashish istagidigilarni ishlari qilish, o'qish, kasb-hunar o'rganishga xohishi borlarni o'qitish choralarini ko'rdim. Hunar o'rganish istagidigilarni kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi tomonidan o'qitildi. Uchrashganlarining har biriga bir nechta badiyi kitob targatdim. Kitobni ko'rib hayron bo'lganlarga keyingi kelishimda kitoblarning mazmunini so'rashim aytdim. Bu kimlarga dir erish tuyulishi mumkin, lekin keyingi borganimda "yana kitob olib kelmadimizmi", deb so'rashdi. Kitob pul bermaydi, lekin ma'naviyatni oshirib yangi g'oyalarga yo'l o'chadi. Haqiqatan ham

tomorqlarda o'zgarishlar bo'lganini ko'rdim. hozir tuman bo'yicha 7,5 ming nafr fuqaro xorijda mehnat qilmoqda. Qaytib ketish istagida bo'lgan 700 dan ortiq fuqaro bilan uchrashib, yuqori daromadli ishlari taklif qilinayti. Xorija ishga ketishni istaganlar tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi tomonidan o'qitilib, ma'lum mutaxassislikka ega bo'lgandan so'ng onunuy asosda ishga yuborilayti.

KAMBAG'ALLIK DARAJASI 12,2 DAN 7,6 FOIZGA TUSHGAN

O'tgan yil tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi tomonidan mahallabay ishslash orqali 1649 nafr fuqaro doimiy va jamaot ishlariga joylashtirilgan. Tumanda yil boshida 5757 ta kambag'al oila bo'lib, kambag'allik darajasi 12,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 1-dekabr holatiga ular soni 3645 taga qisqarib, kambag'allik darajasi 7,6 foizni tashkil etgan.

- Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi qaroriga asosan tumanda jami 475 ta kambag'al va nochor oilalarning ro'yxati shakllantirildi. Ularga imkoniyatidan kelib chiqib 80 tadan tovuq, intiyorli shartlarda 10 million so'm so'ng kredit ajratilib, chora mollar olib berildi. Sayhunobod tajribasi asosida tomorqachilinkin rivojlantrish, qo'y, chorva boqish, issiqxonalarini tashkil etish orqali mavsumda olinarning daromadini 50-60 million so'mga yetkazish choralar ko'rilmoxda. Mahallamiz pomidorchilikka ixtisoslashgan. Bu yerda mavsum davomida 6 ming tonnagachida pomidor yetishtiriladi, uni qayta ishslash bo'yicha yangi loylahalarga zarurat tug'ilmoqda. Kambag'al oilalarini tomonidan daromad olishga o'rgatyapmiz, ammo mahallamizda ko'plab xonadonlarda sug'orish muammosi bor edi. Buning yechimi sifatida tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomonqa yer egalari kengashining jamg'arma mablag'li hisobidan faqat sug'orish uchun artezian qurib berildi. Bu artezian 30 dan ortiq tomonqani sug'orish uchun ishlatiladi, sarflangan elektr energiyasi to'lovlar umumiyo to'la-nadi.

Dasturda "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, ta'lini olish va kasb-hunar o'rganish, kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanan, ijtimoiy xizmatlardan foydalanan, yashash sharotlarini yaxshilash, davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasi rivojlantrish va davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishni yo'ga qo'yish belgilangan. Rejalaramizni shu asosda tashkil qilganim.

MAQSAD – TOMORQADAN KAMIDA 50-60 MILLION SO'M DAROMAD OLİSH

Tuman markazidan 16 kilometr olisda joylashgan Fozil Yo'ldosh mahallasida 671 xonadonda 3680 nafr aholi istiqomat qiladi. Ushbu mahallada 10 ta kambag'al

oila ro'yxatga olingan va ularning uchtasida nogiron, 1 ta oilada yakka yolg'iz doimiy tibbiy yordamga muhitoj fuqaro istiqomat qiladi. Qolgan 6 ta oila doimiy daromadga ega emas.

- Ro'yxatga olingan oila a'zolari to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, ehtiyoji borlarga davolanish uchun yo'llanmalari berildi, - deydi Fozil Yo'ldosh mahallasidagi hokim yordamchisi Ilyos Murodov. - Ishlash istagida bo'lgan uch oila a'zosi ijtimoiy soha muassasalariga ishga joylashtirildi. Ularga imkoniyatidan kelib chiqib 80 tadan tovuq, intiyorli shartlarda 10 million so'm so'ng kredit ajratilib, chora mollar olib berildi. Sayhunobod tajribasi asosida tomorqachilinkin rivojlantrish, qo'y, chorva boqish, issiqxonalarini tashkil etish orqali mavsumda olinarning 50-60 million so'mga yetkazish choralar ko'rilmoxda.

Mahallamiz pomidorchilikka ixtisoslashgan. Bu yerda mavsum davomida 6 ming tonnagachida pomidor yetishtiriladi, uni qayta ishslash bo'yicha yangi loylahalarga zarurat tug'ilmoqda. Kambag'al oilalarini tomonidan daromad olishga o'rgatyapmiz, ammo mahallamizda ko'plab xonadonlarda sug'orish muammosi bor edi. Buning yechimi sifatida tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomonqa yer egalari kengashining jamg'arma mablag'li hisobidan faqat sug'orish uchun artezian qurib berildi. Bu artezian 30 dan ortiq tomonqani sug'orish uchun ishlatiladi, sarflangan elektr energiyasi to'lovlar umumiyo to'la-nadi.

Mahallamizdan ishslash, o'qish va doimiy yashash uchun xorija ketgan fuqarolar bilan alohida suhbatlar o'tkazildi. Oyiga 5 million so'mdan kam maosh olayotgan 2 nafr fuqaro qaytib kelib, yer olib dehqonchilik qilishini, 2 nafari hunar o'rganib, Yevropaga ketish istagini bildirdi.

BARCHA XIZMATLAR BIR JOYDA

- Mahallamizda o'tgan yili sentabr oyida hunarmandlar markazi

tashkil etildi va bu yerda metalga ishlov berish, tukuvchilik, ayollar go'zallik saloni, pishiriqlar, quroqchilik, qishloq xo'jalik agregatlariga texnik xizmat ko'rsatish, payvandchilik ustaxonalar tashkil etilib, 18 ta yangi ish o'rni yaratildi, - deydi I. Murodov. - Bu yerga ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolar ishga joylashtirildi va ularga subsidiya asosida asbob-uskulnalar berildi. Hunarmandlar markazining tutash qismidagi binoning birinchi qavatida 12 ta, yuqorisida 6 ta tadbirkorlik subyektlarini jamlab, bir joyda xizmatlar tashkil etilgan. Bu aslida kompleks ravishidagi kichik sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish bo'lishi kerak. Buz buni xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etib, ustoz-shog'ardan an'anasini yo'Iga qo'yidik.

Shu mahallada y

"WORLDSKILLS SAMARKAND – 2025"

V milliy kasblar championati boshlandi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Musobaqada respublikamizning 12 hududidan 146 nafr ishtirokchi hamshiralik, santeznik, payvandlovchi hamda elektromontaichi kasblari bo'yicha mahoratini ko'rsatayti. Championat shartlariga ko'ra, har bir viloyatdan bitta kasb bo'yicha bitta ta'lum muassasalarida 1 nafr o'quvchi va 1 nafrdan ekspert o'qituvchi qatnashmoqda.

- Prezidentimizning 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'linda malakal kadrler tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lum dasturlari ni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida kasbiy ta'lum muassasalarida tayyorlanayotgan o'rta bo'g'in kadrlarini xalqaro ta'lum standartlari asosida tarbiyalash, texnikum o'quvchilarining kasblar bo'yicha xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta'minlash vazifasi belgilangan, - deydi professional ta'lum tizimini rivojlantirish departamenti boshlig'i O'tkirjon Alionov. - Ushbu vazifalari ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizdagi 66 ta teknikum o'quvchilarini Samarcanda to'rtta kasb bo'yicha bellashmoqda. Ishtirokchilarga qulay bo'lishi uchun xalqaro darajadagi asbob-uskuna va jihozlar keltirilgan. Rayoniyni 19 nafr o'zbekistonlik, 12 nafr Qozog'iston, Shvetsariya va Germaniyaning "ESAB"

kompaniyasi vakillari ekspert sifatida baholab bor-moqda. Musobaqada 1-, 2- va 3-o'rinnarni qo'iga kiritgan ishtirokchilarga joriy yilning 23-27-noyabr kunlari Tayvanda o'tkaziladigan "WorldSkills Asia Competition Taipei – 2025" xalqaro kasblar championatiga yo'llanma beriladi va g'oliblar o'tasidagi so'nggi sinov musobaqasida eng kuchli bir nafr ishtirokchi xalqaro musobaqada ishtirok etish imkoniyatini qo'iga kiritadi.

"WorldSkills" musobaqasi ilk bor 1947-yil Ispaniyada ikkinchi jahon urushi natijasida vayron bo'lgan davlatlarning ayrimlari yoshlar uchun yangi ish o'rinnari yaratish maqsadida tashkil etigan. 2017-yilda Birlashgan Arab Amirligida "WorldSkills



Abu Dhabi – 2017", 2019-yilda Rossiyaning Ozon shahrida "45 – WorldSkills" musobaqlari bo'lib o'tgan. Musobaqa 17-22 yosh toifasida o'tkaziladi va har ikki yilda bir marta ishchi kasblar bo'yicha jahon championoti ham tashkil etiladi.

- Kasblar championatida payvandlash texnologiyasi bo'yicha qatnashayman, - deydi Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 2-politexnikum o'quvchisi Sardorbek Egamberdiyev. - Pech yasashda foydalilanildigan qattiq jismda payvandlash ishlarini olib bordim. Ishimni xorijilik ekspertlar yuqori baholadi. Nasib qilsa, keyingi bosqichlarda hani yuqori natijaga erishib, Tayvan da o'tkaziladigan xalqaro ishchi kasblar championatiga yo'llanma olaman.

Musobaqa doirasida milliy kasbiy ta'lum tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklar, erishilgan natijalar, tajribalar va oldimizda turgan dolzlar vazifalar bo'yicha professional mutaxassislar ishtirokida "O'zbekistonda kasb-hunar ta'lum tizimini yanada rivojlantirish" mavzusida xalqaro forum o'tkaziladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Chekka hududlarda ta'lum sifati pastligining asosiy sabablaridan biri malakali o'qituvchilarining yetishmasligidir. Tajribali o'qituvchilar ko'pincha katta shaharlarda yoki infratuzilma rivojlangan hududlarda ishslashni afzal ko'radi. Aksariyat hollarda chekka qishloqlardagi maktablarda darslarni tajribasiz yoki yetarli bilimga ega bo'lmagan o'qituvchilar olib boradi.

So'nggi yillarda hukumat tomonidan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Malakali o'qituvchilarini chekka hududlarga jaib qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilib, o'qituvchilar qo'shimcha moddiy yordam, xizmat uylari va boshqa imtiyozlar taqdim etilmoga.

Shuningdek, qishloq joylarda yangi maktablar qurish va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha ham ko'plab ishlar olib

Chekka hududlardagi o'quvchilarga olimlar dars beryapti

borimoqda. Xususan, mobil kutubxonalar va raqamli ta'lum platformalari orqali o'quvchilarga sifatli ta'lum materiallari yetkazilmoqda.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadi ki, chekka hududlarda ta'lumi rivojlantirish uchun jamiyatning barcha qatlami birlashishi kerak. Xususan, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor va jamoat tashkilotlari bu jarayonda faol ishtirok etishi zarur. Chekka hududlarda o'quvchilar shahar markazlaridagi tengdoshlari bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari lozim.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida umumta'lum maktablarini, ayniqsa, chekka hududlarda ta'lum sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bois Samarcand davlat chet

tillar instituti tomonidan Qo'shrabot tumanida yashayotgan kam ta'minlangan oila farzandlari, xorijiy davlatlarga ishslash maqsadida ketayotgan fuqarolar uchun tumanning ikki hududida xorijiy tillarni o'qitishga mo'ljallangan o'quv markazlari tashkil etildi. Mazkur o'quv markazlari o'quvchilariga institutning malakali professor-o'qituvchilarini tomonidan ingliz, nemis va koreys tillari o'qitidi.

O'quv markazlar uchun tuman markazida joylashgan 82-umumta'lum maktabi binosidan besh-ta xona, Jo'shota hududidagi 1-kasb-hunar maktabi binosidan beshta xona ajratildi. Mazkur xonalarda dastlab institut mablag'lari hisobidan ta'mirlash ishlari olib borildi, jihozlar, o'quv adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar, zamonaviy ax-

borot texnologiyalari bilan ta'minlanadi. Olti nafr ingliz, nemis va koreys tili mutaxassislarini mashg'ulot olib borish uchun biriktirildi.

Bundan tashqari, institut jamoasi Nurobod tumanining chekka hududlaridagi umumta'lum maktablarini bilan hamkorlikni yo'lg'a qo'ydi. Institut professor-o'qituvchilarini har hafta master-klass va ochiq darslar tashkil etib, o'quvchilarga chet tilini chuqur o'rgatmoqda. Xususan, institutning ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi o'quvchilarini har chorshanba kuni Nurobod tumanidagi 33-umumta'lum maktabiga borib, bitiruvchi sinflar bilan ingliz tilini chuqur o'zlashtirish borasida turli amaliy seminarlar o'tkazib kelmoqda.

Farida ABDURAHIMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi.

REKLAMA, E'ONGLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OCHIQ MA'RUDA O'TKAZILADI

SamDTU anesteziologiya, reanimasiya va shoshilinch tibbiyot hamda neyroxirurgiya kafedralarini birlashtirish 2025-yil 10-fevral kuni soat 11:15 da o'chiq integral ma'ruda o'tkazadi.

Mavzu: "Komatoz holatlarda tez tibbiy yordam va intensiv terapiya".

Ma'ruzachilar: anesteziologiya, reanimasiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi mudiri, t.f.d., prof. M.M.Matlibov hamda neyroxirurgiya kafedrasi mudiri, PhD., dotsent M.A.Aliyev.

Ekspertlar: SamDTU 2-son davolash fakultetining 1-son xirurgik kasalliklari va transplantologiya kafedrasi dotsenti, PhD, I.A.Aliyev va SamDTU tibbiy pedagogika fakultetining umumiy xirurgiya kafedrasi professori, t.f.d., S.A.Abdullayev.

Taklif qilinganlar: 1-son davolash fakultetining 601-605-guruh talabalari, magistr va klinik ordinatordan, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilarini hamda barcha qiziquvchilar.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Hamrakulova Saroga (2024-yil 26-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Sharipova Orzigul Karimovnaga (2023-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Sattarov Toxir Gafurovichga (2024-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-“J” uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Hamrayeva Guliston Pulatovnaga (2024-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Kodirov Shuxrat Kodirovichga (2022-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrab Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xush Rusaddin Shamilovichga (2024-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrab Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Sattarov Toxir Gafurovichga (2024-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Ulfanova Diana Vladimirovnaga (2020-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarinha Xisrovovna notarial idorasida marhum Zaripova Raxbar Nasimovnaga (2024-yil 11-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarinha Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudaki ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Shaydarova Zamira Djalilovnaga (2023-yil 19-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudaki ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarinha Xisrovovna notarial idorasida marhum Zaripova Raxbar Nasimovnaga (2024-yil 11-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarinha Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamova notarial idorasida marhum Ulfanova Diana Vladimirovnaga (2020-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Maxammatov Alikulga (2024-yil 8-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak sharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mavlanov Muminkulga (2021-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Zokirov Abubakir Xaydar o'g'liga (2024-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

O'zbek tili milliy korpusining dasturiy ta'minoti yaratildi

Jahon tilshunosligi taraqqiyotida har bir xalq o'z tilining milliy mavqeini oshirish, uning asl holatini saqlash, kelajak avlodga butunligicha yetka-zish maqsadida milliy til korpuslarini yaratmoqda. Chunki til korpuslari nafaqat elektron jamlanma, balki til o'rganuvchilarga, turli lingvistik tad-qiqotlarni olib boruvchilarga qo'llanma hamda leksikografik manbadir.

Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalişlaridan bo'lgan kompyuter lingvis-tikasi va korpus lingvistikasi rivojlanib, yurtimizda ham milliy til va uning sofligini saqlashga keng e'tibor qaratilmoqda. Bunda milliy til korpusining dasturiy ta'minoti yaratish, uning internet tarmog'iда ishlashini ta'minlash, milliy tilni kompyuter yordamida lingvistik aspektida tadqiq etish umumih masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda o'zbek tilining sofligini saqlash, uni dunyoga tanitish masalasi ko'tarilmoxda. Bino-barin, Prezidentimizning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet jahon axborot tarmog'iда munosib o'ren egallashini ta'minlash, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish zarurligi ko'rsligani. Shuningdek, "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi"da o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amalyi ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek til milliy korpusini yaratish vazifasi qo'yilgan.

Bu borada "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" loyihasi doirasida Samarcand davlat universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarcand filialining 10 naftaga yaqin ilmiy va texnik xodimlari bilan birgalikda amalyi ishlarni boshlaganmiz.

Xususan, mavjud xorijiy milliy korpuslarini tahlil qilish, o'zbek tili milliy korpusini yaratish tamoyillarini aniqlash, dasturiy ta'minot talablarini shakllantirish, loyi-halash, dasturiy ta'minot uchun algoritm-larni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va tasdiqlash, kabi loyihamizning asosiy vazifalarini belgilab, o'zbek tili milliy korpusining dasturiy ta'minotini ishlab chiqid. Korpus ma'lumotlar bazasini tahrir qilishga mo'ljallangan uzbekcorpora.uz dasturiy ta'minoti onlayn rejimda ishlaydigan be-pul platforma bo'lib, tilni tadqiq qilishda o'rganuvchiga istalgan joyda, istalgan kompyuterda ishslash imkonini beradi.

O'zbek tili milliy korpusi axborot tizimi dan foydalanan uchun internet tarmog'iiga ularib, brauzer ochiladi hamda <http://uzbekcorpora.uz/> yoki <http://www.uzbekcorpora.uz/> havolasi orqali dasturga o'tiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tili milliy korpusini yaratish va boshqarishga mo'ljallangan uzbekcorpora.uz dasturiy ta'minotidan so'z va iboralarni korpus bo'ylab qidirish (konkordans), razmetkasini aniqlash (so'z morfologiysi), lemmalash, tokenlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Korpus yaratishda turli xil razmetkaning bo'lish yoki bo'imasligini va agar bo'lsa, uning aniqlik darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq. Korpus dasturiy ta'minoti tarkibida avtomatik razmetkalash dasturlari, albatta, bo'lishi kerak. Razmetkaning yuqori aniqlikda bo'lishini faqat filolog mutaxassis ta'minlashtirish mumkin. Chunki mutaxassis har bir matnning razmetkalashini so'zma-so'z sinchiklab tekshirishi, avtomatik razmetka xatolarini tuzatishi va onomim holatlarni bartaraf qilishi kerak.

Korpus foydalishiga mo'ljallangan dasturlarga korpusdan qidiruv tizimi, konkordans hosil qilish, kontekstlarni tuzish va chiqarish, kalit so'zlarning statistik ma'lumotlarini aniqlash, metarazmetka va razmetka ma'lumotlarni taqdirm etish, kengaytirilgan kontekstni hosil qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Korpus tarkibida matnlari bilan ishslash


uchun tuziladigan dasturning umumiyo strukturaviy modeli ishlab chiqilishi lozim bo'lib, hozircha o'zbek tili milliy korpusiga matn yuklashdan toki uni ma'lumotlar bazasida saqlangungacha bo'lgan jarayon uchun model ishlab chiqildi.

Jumladan, "Tegger" dasturidan matnlarni korpusga kiritishda foydalaniлади. Matnlarni korpusga kiritish jarayonida, matnga grammatic ishlov beriladi. Matndagi so'zlarga grammatic ma'lumotlar yarmavtomat tarzida to'ldiriladi va grammatic ma'lumotga ega bo'lgan so'zlarning rangi qizil rangga o'zgaradi va foydaluanuvchiga razmetkalamanmagan so'zlar hamda razmetkalangan so'zlar yaqqlor ajralib ko'rindi

Til korpuslarida minglab matnlar joylashgan bo'lib, kerakli so'zni topish va uning lingvistik xarakteristikasini olish uchun qidiruv tizimidan foydalaniлади. Boshqa korpuslar singari uzbekcorpora.uzda ham bu tizim faol ishlaysi. Qidiruv tizimi natijasida nafaqat so'zning grammatic razmetkasi, balki o'sha so'z ishtiroy etgan jumlalar to'plami – konkordansi ham taqdirm etildi.

Konkordans – matnni o'rganishning an'anaviy, uzoq vaqtidan beri ma'lum bo'lgan, ammo hali ham matnni o'rganishning yetarlicha o'rganilmagan usuli. U bevosita va kengaytirilgan kontekstdagi so'zlarning to'liq indeksini beradi. Konkordans – korpusga kiritilgan matnlardagi o'rganilayotgan so'zning konteksti va ularning ro'yxati, u o'rganilayotgan so'zni uni o'rabi turgan boshqa so'zlar bilan taqdim etadi. Korpus tilshunosligida o'rganilayotgan so'z odatda "kontekstdagi kalit so'zlar" deb tushuniladi. uzbekcorpora.uz tizimida konkordans tuzish uchun "Tilshunoslik tadqiqotlari" menyusidan "konkordans" bo'limiga kiriladi

KONKORDANSNING HOSIL BO'LISHI VA SO'ZNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI NAMOYISHI



Uzbekcorpora.uz o'zbek tili milliy korpusining yana bir noyob xususiyatidan biri bu, mualiflik korpusni yaratishdir. Dasturiy ta'minot "Alpomish" dostoni matnlari asosida korpus yaratish yo'lli bilan sinovdan o'tkazilgan va foydalananiga tayyor holatga keltirilgan bo'lib, har bir tadqiqotchi o'zining mualiflik korpusini yaratish va shu orqali obyektini tadqiq qilishi mumkin. Bunda mualiflik korpusini yaratish uchun foydaluanuvchiga shaxsий kabinet oshib beriladi. O'zining kabinetida tanlangan matnlar bo'yicha lingvistik tahlillari va tadqiqotlarni bajarishi mumkin. Bu esa milliy korpus bazasini parallel ravishda matnlar basizi bilan to'ldirish imkoniyatini beradi.

Suyun KARIMOV,
Sharof Rashidovich nomidagi
Samarcand davlat universiteti
professori.

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 213 nusxada chop etildi. Buyurtma 52. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshnabi, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'RONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LMILAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ
ВЕСНИК



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

UY-MUZEYIDA QANDAY ASHYOLAR SAQLANADI?

Joriy yil yurtimizda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamaot arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi keng nishonlanmoqda. Hududlarda mutafakkirning hayoti va ijodiga bag'iishlangan ijodiy uchrashuvlar, tanlovlari o'tkazilmoqda, omvomiy axborot vositalarida chiqishlar, ko'rsatuv va maqolalar e'lon qilinmoqda. Shu bilan birga, Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyida joriy ta'mirlash, reekspozitsiya va obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Ma'rifatparvar bobomiz va uning ijodi, faoliyatiga oid nodir eksponatlar, kitoblar, qo'lyozmalar, jurnalistik materiallar, sahnallashtirgan asarlari hamda adib yashagan davr haqidagi qimmati ma'lumotlar Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko'chasida joylashgan Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyida saqlanadi. Uy-muzey katalogi va unga kirtilgan eksponatlar tarixchilar, muzeishunos, san'atshunos olimlar hamda keng jamaotchilik uchun muhim manba sanaladi.

UY-MUZEYI KATALOGI

Behbudiy Samarcandda o'ziga xos ilmiy-ma'rifiy muhit yaratgan va "Turkiston jadidlarining otasi" degan nomiga sazovor bo'lgan. Muzey katalogida va saqlanayotgan eksponatlarda bobomiz tashabbusi bilan 1903-yilda Said Ahmad Siddiqiy bilan birgalikda Samarcand atrofidiagi Halvoi hamda Abdulqodir Shakuri bilan birgalikda Rajabamin mahallalarida yangi maktablar tashkil etgani haqidagi ma'lumotlar bor. "Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi" ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan "Muxtasar tarix islam", "Alifboi maktabi islomiya", "Amaliyoti islomiya", "Matqali jug'rofiya umroni" asarlari esa ana shu yangi usul maktablar uchun darslik sifatida yaratilganini ko'rish mumkin.

Mazkur ekspozitsiyada Behbudiy bilan bir davorda ijod qilgan jadidlarining asarlari ham bor. Bular - Said Vasilij qalamiga mansub "Madaniyat va zoifa sharifiy islomiya", Said Ahmad Siddiqiy qalamiga mansub va Abdulqodir Shakuriy tomonidan chop etilgan "Anjuman arvoh", Munavarqori qalamiga mansub "Islom aqidalar", Abulgusim Oxunzoda Ganjiyning "Risolai ittihodi" asari, Abdulqodir Shakuriyning "Jomi-ul hikoyot" asarlardir.

BEHBUDIY IJODXONASI

Muzeydagi ekspozitsiyalarning yana biri "Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodxonasi" deb nomlanib, undan XIX asr oxiri XX asr boshlariga oida stol, stul, kreslo, shkaf, devor soati, shuningdek, Behbudiy va uning zamondoshlari tomonidan keng foydalaniлgan uy-ro'zg'or buyumlar - mis ko'za, kitob o'qish uchun lavh, qalamdon, kitob tashish uchun teridan ishlangan sumka va Qur'on kitobini saqlash uchun sumkacha o'rinni olgan. 1903-yildan boshlab ishlab chiqarilgan va Turkistonda keng tarqalgan "Kontinental" yozuv mashinkasi, o'sha davrga xos telefon apparati va

stol soati ham ijodxonani bezab turibdi.



"Behbudiyning zamondoshlari, safdoshlari va shogirdlari" nomli bo'imida alohida o'rinni archa qipig'i va tut daraxtidan qo'ida yasalgan globus egallaydi. Uning yuzasida lak bilan qoplangan materiklar, okeanlar va denigizlar, tog'lar va turli mamlakatlarning konturlari aks ettirilgan. Ekvatorning keng chizig'i da o'n ikkitu burj belgisi tasvirlangan. Globus 1313-1895-yillarda ishlab chiqarilgan bo'lib, muallif o'z davrining bilimdonordaniborin biri Ko'ja Yusuf Mirfayazov (1842-1924)ning ismi to'rtta burchakda arab yozuvida ko'rsligani. Globus Mahmudxo'ja Behbudiy zamonda boshqa fanlar qatorida geografiya va kartografiya ham rivojlanganligining belgisidir.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIKA OID MUSIQA VA CHOLGU' ASBOBLARI

Muzeydagi vitrinlarning birida XIX asr oxiri XX asr boshlarida vatanimiz hududida foydalaniлgan asosiy musiqa asboblari - doira, qashqar va afg'on ruboblari, nay namoyish etilgan. Musiqa asboblarining xilm-xilligi shuni ko'rsatadi, O'rta Osiyo hududida Eron, Qashqar, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va boshqa mintaqalar musiqiy an'analari ta'sirida o'ziga xos musiqa madaniyatlari shakllangan. Shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholining o'ziga to'q, ziyoili qatlami orasida urf bo'lgan kiyim-kechaklar namoyish qilinmoqda. Ular – yashil atlasdan qo'ida to'qilgan yakkak, paxtadan tikilgan tik yoqali ko'yak, binafsharang baxmaldan tikilgan do'ppi,

qizil, oq va moviy chiziqlarga ega sala, binafsharang, ko'k va yashil chiziqlarga ega beqasamdan tikilgan ayollar cho-poni, qo'lda ishlangan gul naqshli ipak abra matodan tikilgan ayollar ko'yagi, charmidan ishlangan erkaklar va ayollar oyoq kiyimlaridan iboratdir.

NOSHIRLIK NAMUNALAR

Mahmudxo'ja Behbudiy noshirlikda ham o'ziga xos maktab yaratgan. Navbatdag'i ekspozitsiyada olim tomonidan XX asr boshlarida nashr qilingan "Samarqand" gazetasining 45-soni va "Oyna" jurnalining 45-soni ber necha sonlari namoyish etilmoqda. Muzeyning noshirlik xonasi intererida asosiy e'tibor Behbudiyning noshirlik faoliyatini yoritishga qaratilgan. Turkistonda nashr ishlari bilan dastlab podsho Rossiysi statistika qo'mitalari shug'ullanган. Shu sababdan 1868-yilden 1910-yilgacha nashrlarning asosiy qismini rus tilidagi gazetalar tashkil etgan.

XX asr boshida, aniqrog'i, 1913-yilden Behbudiy ham matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. O'sha yil aprel oyidan rus-o'zbek va forsyi tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifa da "Samarqand" gazetasini chiqaradi.

45-sondan keyin moddiy tanqislik tuyafli gazeta chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20 avgustidan "Oyna" jurnalini chiqara boshlaysidi. Bu suratlari haftalık jurnal asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsyi she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar berigan. "Nashriyoti Behbudiy" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochadi. Fitratning "Bayonoi sayyohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib nashr etadi, Turkiston xaritasini tuzib, bosmada chiqardi.

Muzeye noshirlik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ashyolar ham namoyish etilmoqda. Ular – "Samarqand" gazetasini "FORSTE & TROMM LEIPZIG" firmasida ishlab chiqarilgan Eron orqali Turkistonga olib kelgingan, qo'l yordamida ishlataligidan dastgohidir.

Bundan tashqari, muzey ekspozitsiyasida Turkistondagi jadidlar siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi ashyolar, varaqalar, broshuralar, Behbudiy va boshqa ma'rifatparvarlarning asarlari ham ko'rish mumkin. Shuningdek, namoyish etilayotgan eksponatlarni o'zbek, rus, ingliz tillarida katalog holida ham ko'rsa bo'ladi.

Gulmamat AHMEDOV,
Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeysi mudiri.

